

YAPON SAFORASINING FARMOKALOGIK XUSUSIYATI

Baxridinova Diana Baxtiyorovna

*Toshkent shahar, Olmazor tumani, Abu Ali ibn Sino nomidagi
ixtisoslashtirilgan maktab 7-“V” sinf o’quvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yapon saforasi haqida ma’lumot berilgan, shuningdek, uning dorivorlik xususiyati, qanday dori olinishi, kimyoviy tarkibi, gullash, meva berish davrlari va foydali xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yapon saforasi, *stiphonolobium japonicum*, pagoda, dukkak, tuxumak, rutin, glikozid, tibbiy etil spirti, nastoyka, me’da, surunkali yiringli yallig’lanish, alkaloidlar.

Yapon saforasi dukkakdoshlar oilasiga mansub. Lotincha *stiphonolobium japonicum*, pagoda va tuxumak daraxti degan nomlari ham mavjud. Asosan manzarali draxt sifatida ko’kalamzorlashtirish ishlarida keng foydalaniladi. Yapon saforasi 1-bo’lib Xitoydan topilgan 400 yil oldin yozilgan “Tso Chjuan” qo’yoymasida keltirilgan. Yaponiya va Xitoyda 1747-yili ma’daniylashtirilgan. Yaponiya, Xitoy, Koreyada yovvoyi holda o’ssa, Kavkaz, Qrim, Markaziy Osiyoda manzarali daraxt sifatida o’stiriladi.

Bu darxt balandligi 10-25 metrgacha bo’lib, shox-shabbasi keng yoyilgan. Bargi tuxumsimon, navbat bilan joylashadi, 25 sm gacha yetadi. Gullari oq-sariq tusda, uzunligi 35 sm gacha. Yilda ikki marta gullaydi. Iyun-iyulda gullasa, mevasi avgust-oktyabr oylarida pishib yetiladi va saqlanib qoladi. Mevasi 3-7 sm, 2-8 urug’li aniq siqilgan loviya. Pishmagan mevasi yashil, pishgani esa qizil rangda bo’ladi. Safora 45 ta turni o’z ichiga oladi.

Yapon saforasi bir qator kasalliklarni davolashda yaxshi samara beradi. Sababi, tarkibida foydali moddalar bisyor. Jumladan, biologik faol rutin moddasi bisyor, glikozid, oshlovchi moddalar, organik kislotalar, alkaloidlar, askorbin kislota mavjud. Urug’ida 10% yog’simon moy bor.

Qon bosimi ko’tarilganda, ichburug’, oshqozon (me’da), o’n ikki barmoqli ichak yarasida, ichki qon ketishida uning spirtli tindirma ya’ni nastoykasidan foydalaniladi. Tuxumakdan tashqi muolajada ham keng qo’llaniladi. Chuqur va yiringli yaralarni davolashda va tibbiyotda shamollashga qarshi vosita hisoblanadi. Stamotalogiya amaliyotida ham qo’llaniladi.

Safora mevali damlama:

Kerakli mahsulotlar: quritilgan va maydalangan safora mevasi, tibbiy 70%li etil spirit.

Tayyorlanishi: maydalangan safora mevasiga 1-2 osh qoshiq tibbiy etil spirit qo'shiladi. O'n besh kun xona haroratida saqlanadi, keyin suzib olinadi.

Qo'llanilishi: 20-30 timchidan kunig ovqatlanishdan 15 daqiqa oldin 3 mahal iste'mol qilinadi. Bu ichki qon ketishi, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yaralarini, ichburug', qon bosimi ko'tarilishini oldini oladi. Dizenteriya va stamotit kabi og'iz bo'shlig'i kasalliklarini davolashda ham samarali yordam beradi.

Safora mevali qaynatma:

Kerakli mahsulotlar: qaynoq suv, maydalangan safora.

Tayyorlanishi: bir stakan qaynoq suvga ikki choy qoshiq maydalangan safora qo'shiladi va 10-15 daqiqa qaynatiladi.

Bundan ko'proq tashqi muolajada foydalaniladi. Soch to'kilishi, teridagi yaralarni, surunkali va yiringli yallig'lanishlarni davolash uchun ishlatiladi.

Yapon saforasi juda ham ko'p mamlakatlarda manzarali daraxt sifatida ekilsa-da, undan farmasevtika sohasida foydali kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyati uchun ham qo'llaniladi. Shuni ham bilishimiz mumkin, tuxumak nafaqat tashqi muolajada, balki ichki organlar va og'iz bo'shlig'i kasalliklarini ham davolashda samarali foyda beradi. Bu dorivor o'simlikdan uy sharoitida dori-darmon tayyorlash ham mumkin. Yapon saforasi manzarali, dorivor, amaliy ahamiyati jihatdan ham yuqori ko'rsatkichlarda turadigan betakror xushmanzara daraxt hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3965>
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BE%D1%84%D0%BE%D1%80%D0%B0_%D1%8F%D0%BF%D0%BE%D0%BD%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F
3. <https://www.flower-db.com/en/flowers/styphnolobium-japonicum>
4. Мазнев Н.И. Характеристики лекарственных растений